

SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Nodirov Asadbek

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Iqtisodiyot fakulteti, Moliya yo'nalishi

Magistratura talabasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati milliy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, aholi bandligi va daromadlarini oshirish, innovatsion yangiliklarni amaliyotga joriy qilishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Shu boisdan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatida tadbirkorlikni rivojlantirish, unga qulay muhit yaratish ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi. Tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi esa ko'p jihatdan davlatning soliq siyosatiga, xususan soliq yukining darajasi va unga nisbatan qo'llanilayotgan yondashuvlarga bog'liq bo'ladi. Soliq yuki (tax burden) – bu yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga yuklatilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning miqdoriy ifodasi bo'lib, ularning iqtisodiy faoliyatga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'sirini anglatadi. Bu atama ko'p hollarda yalpi ichki mahsulot (YAIM)ga nisbatan undirilgan soliqlar ulushi bilan o'lchanadi. Jahon amaliyotida soliq yukining optimal darajasi 20–25% atrofida deb qaraladi.

Agar soliq yuki ortiqcha bo'lsa, bu korxonalar daromadiga salbiy ta'sir qiladi, ularga investitsiya kiritishni qiyinlashtiradi, xarajatlarning oshishiga, narxlarning ko'tarilishiga va yakuniy iste'molchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ko'plab iqtisodchilar, jumladan, 1974-yilda A. Laffer tomonidan ishlab chiqilgan "Laffer egri chizig'i" nazariyasiga ko'ra, soliqlar oshib borar ekan, bir vaqtda davlat budjetiga tushumlar ham ma'lum bir nuqtadan so'ng kamayadi.⁴² Tadbirkorlik faoliyati soliq tizimiga bevosita bog'liq bo'lib, soliq yuki uning barqarorligiga va kengayishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Soliq stavkalarining yuqoriligi yoki soliq qonunchiligidagi murakkabliklar quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- "Soya iqtisodiyoti" ulushining oshishi;
- Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatdan chiqib ketishi yoki rasmiy ro'yxatdan o'tmasligi;
- Investitsion jozibadorlikning kamayishi.

Shuningdek, soliq yukini optimallashtirish – bu soliqlarning hajmini kamaytirish emas, balki ular teng, adolatli va iqtisodiy rag'batlantiruvchi tamoyillarga asoslangan holda taqsimlanishini anglatadi. Bunda asosiy yo'nalishlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Progressiv soliq stavkalari orqali kichik biznesga yengilliklar yaratish;
- Soliq imtiyozlarini aniq mezonlar asosida joriy etish;

⁴² Laffer A.B. The Laffer Curve: Past, Present, and Future. – Heritage Foundation Report No. 1765, Washington D.C., 2004.

- Soliq ma'murchiligini soddalashtirish va raqamlashtirish;
- Soliq to'lovchilarning huquqiy himoyasini kuchaytirish.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari, jumladan 2019-yildan boshlab yuridik shaxslarga solinadigan foyda solig'i stavkasining 14%ga tushirilishi va yagona yer solig'i o'rniga yagona yer resursi solig'ining joriy etilishi, soliq yukini biroz yengillashtirdi. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining soliq tushumlari umumiy tushumlarning 31%ini tashkil qilgan, bu esa soliq yuki hali ham kichik subyektlar zimmasida sezilarli ekanini ko'rsatadi.⁴³

Masalan, Jahon Bankining 2020-yilgi Doing Business hisobotida O'zbekiston soliq to'lov bo'yicha 69-o'rinni egallagan bo'lib, tadbirkorlikka solinadigan umumiy soliq yuki YAIMning 33,1%ini tashkil etgan. Bu esa iqtisodiy jihatdan qisman yuqori ko'rsatkich hisoblanadi va tadbirkorlar faoliyatiga bosim sifatida baholanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, xususan Estoniya soliq tizimi namunasi sifatida ko'plab iqtisodiy tadqiqotlarda tilga olinadi. Estoniyada yuridik shaxslar daromadiga soliq faqat daromad taqsimlanganidan keyingina solinadi (0% reinvestitsiya qilingan foydaga). Bu esa kompaniyalarga o'sish va kapitalni jamg'arish imkoniyatini beradi.⁴⁴

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar doirasida soliq siyosatini liberallashtirish, soliqlar sonini kamaytirish, soliq solish bazasini kengaytirish va soliq tushumlarini oshirish bo'yicha bir qator ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ammo shu bilan birga, soliq yukining ayrim tarmoqlar yoki tadbirkorlik subyektlari uchun adolatsiz taqsimlanishi, murakkab hisobot jarayonlari, soliq qonunchiligidagi barqarorlikning yetarli darajada bo'lmasligi kabi muammolar ham mavjud. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab soliq tizimini isloh qilish yo'nalishida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Soliq yukini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlariga soliq sohasida yengilliklar berish orqali ularning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish asosiy maqsad qilib belgilandi. Quyidagi 1-jadval orqali esa buni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Soliq stavkalari va soliq yuki dinamikasi (2018–2023 yillar)⁴⁵

Yil	Yuridik shaxslar foyda solig'i stavkasi (%)	QQS stavkasi (%)	YAIMga nisbatan soliq tushumlari (%)
2018	14%	20%	23,5%
2019	12%	15%	22,9%
2020	15% (pandemiya ta'siri)	15%	20,8%
2021	15%	15%	22,1%
2022	15%	15%	23,3%
2023	15%	12% (tushirish)	24,0%

⁴³ www.soliq.uz.

⁴⁴ <https://www.doingbusiness.org>

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlariga asosida muallif tomonidan tuzilgan

bosqichma-bosqich)

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2019-yilda amalga oshirilgan soliq islohotlari doirasida foyda solig‘i stavkasining 14 foizdan 12 foizgacha, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) stavkasining esa 20 foizdan 15 foizgacha kamaytirilishi qisqa muddat ichida tadbirkorlik subyektlarining soliq yuki darajasini sezilarli darajada yengillashtirdi. Bu islohotlar davlat byudjetiga tushumlarning muvozanatli kamayishini ta'minlagan holda, ayni paytda kichik va o‘rta biznes vakillarining moliyaviy yukini kamaytirishga, investitsion faollikni oshirishga va ishchi o‘rinlar sonini ko‘paytirishga xizmat qildi.

Biroq, keyingi yillarda makroiqtisodiy beqarorlik, pandemiyaning iqtisodiyotga ko‘rsatgan bosimi va davlat xarajatlarining o‘shishi natijasida soliq yuki ko‘rsatkichlarini barqaror darajada ushlab turish qiyinlashdi. Bu esa ayrim hollarda tadbirkorlar uchun soliq bosimini qayta kuchaytirgan. Shunga qaramay, 2023-yilda QQS stavkasining yana bir bor 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirilishi muhim iqtisodiy rag‘batlantiruvchi choraga aylandi. Mazkur pasayish bir tomondan, tadbirkorlar uchun umumiy soliq yukini yengillashtirsa, ikkinchi tomondan, iste‘mol tovarlari narxini barqarorlashtirish orqali ichki bozor talabining faollashuviga olib keldi. Narxlar darajasining nisbatan pasayishi yoki sekinlashuvi aholining real xarid qobiliyatini oshirdi, bu esa o‘z navbatida, kichik biznes subyektlarining savdo hajmini ko‘paytirib, iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatladi. Shuningdek, QQS stavkasining kamaytirilishi norasmiy iqtisodiyot ulushining qisqarishiga, ya‘ni tadbirkorlarning rasmiy hisobda ishlashga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qildi. Bu orqali soliq bazasining kengayishi ta‘minlandi va davlat budjeti barqarorligi uchun salbiy ta‘sirni kompensatsiya qilish imkoniyati yuzaga keldi.⁴⁶

Yuqoridagi tahlillar va amaliy ma‘lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, soliq yukini optimallashtirish nafaqat fiskal siyosatning samaradorligini oshiradi, balki tadbirkorlik muhiti sifatini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi, kengayish salohiyati va qonuniy faoliyat yuritishga bo‘lgan qiziqishi ko‘p jihatdan ular zimmasiga yuklatilgan soliq majburiyatlarining adolatli va prognoz qilinadigan bo‘lishiga bog‘liq.

O‘zbekiston tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari, xususan foyda solig‘i va QQS stavkalarining bosqichma-bosqich pasaytirilishi, soliq boshqaruvining raqamlashtirilishi, kichik va o‘rta biznesga soliq yengilliklarining joriy etilishi – bularning barchasi soliq yukini kamaytirish orqali iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga qaratilgan ijobiy qadamlar bo‘ldi. Biroq tahlillar ko‘rsatmoqdaki, ayrim holatlarda soliq yuki hanuz kichik biznes zimmasiga ortiqcha bosim tarzida ta‘sir etmoqda. Bu esa “soya iqtisodiyoti”ning saqlanib qolishi, noqonuniy faoliyatning davom etishi va rasmiy iqtisodiyotning kengaymasligiga sabab bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan, kelgusida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ishlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir:

⁴⁶ www.soliq.uz.

- Soliq stavkalarining iqtisodiy sektorlarga mos differensiallashtirilgan tizimini joriy etish – bu soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi.
- Soliq imtiyozlari va rag'batlarning natijadorligini baholash tizimini ishlab chiqish – foydali imtiyozlar saqlanib qoladi, samarasizlari esa bekor qilinadi.
- Soliq ma'murchiligini yanada soddalashtirish va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish – ayniqsa kichik biznes uchun qulay sharoitlar yaratish zarur.
- Tadbirkorlarning soliqqa oid xabardorligini oshirish va huquqiy himoyasini kuchaytirish – soliq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.
- Xalqaro ilg'or tajribalardan (masalan, Estoniya, Singapur) faol foydalanish – soliq bazasini kengaytirish bilan birga raqobatbardosh muhit yaratiladi.

Umuman olganda, soliq yukining maqbul darajada saqlanishi nafaqat davlat byudjetining barqarorligini ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lgan tadbirkorlikni kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, soliq siyosati va tadbirkorlik o'rtasidagi muvozanat – har qanday taraqqiyot strategiyasining ajralmas bo'lagi bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xudoyberganov Q.X., Juraev Q.K. Soliq nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 256 b.
2. Laffer A.B. The Laffer Curve: Past, Present, and Future. – Heritage Foundation Report No. 1765, Washington D.C., 2004.
3. IMF (International Monetary Fund). Fiscal Monitor: Enhancing the Effectiveness of Public Spending. – Washington D.C.: IMF Publications, 2023.
4. Estonian Tax and Customs Board. Overview of Estonian Tax System. – Tallinn: ETCB, 2023. – <https://www.emta.ee>.
5. www.soliq.uz.
6. <https://www.doingbusiness.org>.